

INGLIZ ADABIYOTIDAGI AYOL YOZUVCHILAR

Xudayarova Hilola Nu'mon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Telefon raqam: +998(94)0891500

E-mail: xudayarovahilola@gmail.com

Ilmiy rahbar: Kenjayeva Mukhlisa Baxxadirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyotidagi eng mashhur ayol yozuvchilardan biri Agata Kristining hayoti va uning adabiyotdagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Adabiy dunyo, jinsdagi bog'liq to'siqlar, gender tengligi, yozuvchi oilasi, ijtimoiy tabaqa, hayot qiyinchiliklari, Qizil Xoch kasalxonasi, detektiv janr ustasi, amneziya kasalligi, Dunyo Gineslar rekordi, tergovchi Puarro, tarjima qilingan asarlari.

Ayol yozuvchilar uzoq yillardan beri turli jinsga oid to'siqlar va kamsitishlarga uchraganiga qaramasdan, ularning adabiyotdagi o'rni tarix davomida juda katta bo'lgan. Bunday to'siqlarga qaramay ayol yozuvchilar adabiy dunyoga bebaho hissa qo'shgan. Agata Kristining hayot yo'llari: Eng mashhur ayol yozuvchilardan biri bu Agata Kristidir. Agata Mari Klarissa Kristi 1890-yilda Torkida, Angliyada tug'ilgan. Uning otasi Amerikalik, o'asi esa Britaniyalik bo'lgan. Ular oilada uch farzand edilar. Agata ularning kichigi edi. Agata o'zining quvonch-u shodlikka to'la bolalik damlardan ko'p vaqtini turli xil hikoyalar to'qish, yozish, pianino chalish va qo'shiqlar kuylash bilan o'tkazar edi. Ammo baxtga qarshi, Agata endigina o'n bir yoshdaligida u orasidan ayrildi, ya'ni otasi vafot etdi. Shundan so'ng ularning hayotida turli muammolar va qiyinchiliklar kelib chiqqa boshlaydi. Ular moliyaviy tomondan ham anchagina qiynalishar edi. Ularning hayoti yaxshilanishiga Onasining birgina umidi bor edi. U ham bo'lsa o'zining kenja farzandi Agata katta bo'lganida boy tabaqalari insonga turmushga chiqishi deb bilar edi. Ammo hammasi ham onasi o'ylaganidek bo'lmadi. Agata Kristi Archibald Kristini sevib qoldi. Ma'lum bo'lganidek, Archi Qirollik uchish korpusida uchuvchi bo'lib ishlar edi. U juda jasur edi, ammo quyi ijtimoiy tabaqadan edi. Ikkisi uchrasha boshlaganiga ko'p o'tmay Archi Birinchi Jahon urushida qatnashish uchun Fransiyaga yuborildi. Oradan bir necha oy o'tgach urushdan qaytib keldi va 1914-yil dekabr oyida Agata bilan turmush qurishdi. 1919-yilga kelib ular qiz farzandli bo'lishdi va Rozalind deb ism qo'yishdi. Urush paytida Agata ham o'z yordamini berish uchun ko'ngillilardan bo'lib mahalliy Qizil Xoch kasalxonasida ambulatoriya bo'limida ishladi. Bu yerdagi turli moddalar, zaharlar haqidagi bilimlarni o'rgangani kelajakdagi detektiv asarlar yozishda katta foyda berdi. Nikohlarining ilk

yillarida ular juda baxtli edi. Ayni o'sha paytlarda, 1920-yilda Agata o'zining "The Mysterious Affair at Styles"(Uslublardagi sirli ish) nomli birinchi kitobini nashr qildirdi. 1926-yil bahorida esa Agataning suyuqli onasi olamdan o'tdi. Bu holat Agatani juda og'ir vaziyatga solib qo'ydi. Eng yomoni esa Archi bunday qiyin paytda aholining yonida bo'lish o'rniga darhol Londonga jo'nab ketib qoladi. Agata qattiq tushkunlikka tushib qoldi va natijada ruhiy salomatligi ham juda yomonlashdi. Shunga qaramay Agata turmush o'rtog'i bilan hayotini davom ettirishga harakat qildi, ammo hammasi bekor bo'ldi. Ular ajrashishdi. Bunday yana bir og'ir ruhiy zarbadan so'ng Agata xotirasini yo'qotish (amneziya) kasalligiga chalindi. U o'n bir kun davomida yo'qolib qildi. Bu paytda, albatta, politsiya va minglab oddiy odamlar ham uni izlashdi. Odamlar orasida "O'z o'zini cho'ktirgan " yoki "Archi uni o'ldirib yuborgan" degan mish-mishlar tarqaldi. Ammo o'n bir kundan so'ng tirik holda topildi. Bu paytda u hech narsani eslay olmas edi. Ammo vaqti kelib xotirasini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. Ko'p odamlar uning xotirasini yo'qotganga ishonishmadi va u buni ataylab qilgan deb tahmin qilishdi. Biroq, tarixchi va "Agata Kristi: Ingliz siri" deb nomlangan tarjimayi hol shaklidagi asar muallifi Lyusi Uorslining ta'kidlashicha, bu firibgarlik emas, balki ruhiy salomatlik bilan bog'liq jiddiy kasallik edi. Shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, Agata yana uzoq yillar davomida ijod qildi. 1976-yilga kelib, 12-yanvar kuni Angliyaning Vallingford hududida sakson besh yoshida vafot etdi.

Agata Kristining ijodiy faoliyati haqida: Detektiv jinoyatlar yozuvchisi Agata Kristi romanlari ikki milliarddan ortiq nusxada sotilgan va u bu orqali badiiy asarlari eng ko'p sotilgan ayol yozuvchi sifatida Dunyo Gineslar rekordiga kirgan. Uning Gerkul Puaro va Miss Marpl kabi fantastik detektiv asarlari juda mashhurdir. Shuningdek Agata Kristi "Mousetrap"(Sichqoncha tuzog'i) deb nomlangan eng uzoq davom etgan, ya'ni 1952-yildan beri "West End" sahnalarida namoyish etilib kelayotgan piyesa ham yozgan. Kristining asarlari detektiv fantastika muhlislari orasida juda mashhurligicha qolgan. Uning bir qancha asarlari film qilib suratga olingan va televideniyalarda namoyish etilgan. Agata Kristining eng mashhur asarlaridan biri bu "Sharq ekspressidagi qotillik". Bu asar 1934-yilda yozilgan. Asarda Puaroning Sharq Ekspressi poyezdida Yaqin Sharqdan Londonga, ya'ni uyiga safari chog'ida kuchli qor yog'ishi natijasida poyezd to'xtab qoladi. Bu paytda esa qotillik sodir etiladi. Bu qotillikni tergovchi Puaro ochishga majbur bo'lishi voqealari tasvirlangan. Bundan tashqari "A.B.C. Qotilliklar" asarini ham hammamiz sevib o'qiganmiz. Bu asar 1936-yilda yoziladi. Ushbu asarda jinoyat detekivi Puaro, Artur Xastings va bosh inspektor Japp birgalikda jinoyatni fosh qilishi haqida yozilgan. Jinoyatlar esa faqat "A.B.C." nomi bilan tanilgan sirli qotil tomonidan sodir etilgan edi. Agataning yana bir eng mashhur asarlaridan bir bu "Sichqoncha tuzog'i". Bu asar 1952-yilda yozilgan va bu qotillik haqidagi sirli piyesa qirol Jorj V ning turmush o'rtog'i qirolicha Merrining tug'ilgan kuniga sovg'a sifatida yozilgan edi. Agata Kristi

detektiv janr ustasi edi. U umri davomida 85 roman, 20 piyesa va yana ko'plab hikoyalar muallifi hisoblanadi. Uning "Puarro tergov qiladi", "Kaminlar siri", "Rojer Ekroydning qatl etilishi", "N yoki M ?", "Qopqon", "Ayblov guvohi" asarlari ham odamlar tomonidan sevib o'qiladi. Asarlarda tasvirlangan jinoyatlar nafaqat dalillar asosida, balki qahramonlarning, ayniqsa belgiyalik izquvar Erkyul Puaroning botiniy, ya'ni ichki tuyg'usi va sezgirligi tufayli ochiladi. Agata Kristi asarlarining katta muvaffaqiyati syujetning qiziqarliligi, yechimning kutilmaganligi, personajlarning yorqinligi bilan izohlanadi. Uning asarlari hozirgacha 103 ta tilga tarjima qilingan!

"Ayol yozuvchilar ham o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'z asarlari orqali gender tengsizligi, kamsitish, turli jamiyatlardan ayollar duch kelgan kurashlarga oydinlik kiritgan. Ularning yozuvlari ijtimoiy o'zgarishlar, ilhomlantiruvchi suhbatlar, hamdardlik va tushunishni rivojlantirishga kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. "

Xulosa: So'nggi paytlarda ayol yozuvchilarning hissalarini e'tirof etish va qadrlash ortib bormoqda. Ayol mualliflar ham nufuzli mukofotlarni qo'lga kiritdilar, xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldilar. Shu jumladan Agata Kristi ham o'zining hayot yo'llaridagi turli qiyinchiliklariga qaramay ijodiy faoliyatini davom ettirdi va judo katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ayol yozuvchilarning so'zlari, asarlari zamonaviy adabiyotni shakllantirishda, kitobxonlar va yozuvchilarga ta'sir qilishda davom etmoqda. Ayol yozuvchilarning adabiyotidagi rolini tan olish va tan berish juda muhimdir.

List of references

1. "International Journal of Advanced Research in Science, Communication and Technology " (IJARSCT). Volume 3, Issue 5, June 2023. Rohan Raj. Page 128
2. <http://www.agathachristie.com/>
3. <https://oxfordsummercourses.com/articles/famous-female-writers-in-history/>
4. Chandler, Raymond. "The Big Sleep." Vintage Crime/Black Lizard, 1988.
5. Doyle, Arthur Conan. "The Adventures of Sherlock Holmes." Penguin Classics, 2001.
6. Christie, Agatha. "The Murder of Roger Ackroyd." William Morrow Paperbacks, 2011.
7. Dull, C., Zhuangzi, J., & Thoreau. Wandering, Nature, and Freedom. Journal of Chinese Philosophy, 39(2), 222–239. (2012).
8. Emerson, R.W. Essays and Poems by Ralph Waldo Emerson. New York: Barnes & Noble Books. 119 LANGUAGE CIRCLE: Journal of Language and
9. Forde, S. Natural Law, Theology, and Morality in Locke. American Journal of Political . (2001)